

Original paper

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA NUTQIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI



© D.Ch. Mamatraimova¹✉

¹Termiz davlat pedagogika instituti, Termiz, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: boshlang'ich ta'lim bosqichida nutqiy kompetensiyaning shakllanishi o'quvchilarning umumiy rivojlanishi, kognitiv va kommunikativ qobiliyatlarining asosiy omili hisoblanadi. Zamonaviy pedagogikada integrativ yondashuv fanlararo bog'lanishlarni ta'minlash orqali nutq faoliyatini rivojlantirishning samarali yo'nalishi sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu yondashuv ona tili darslarini boshqa fanlar (adabiyot, atrof-muhitshunoslik, tasviriy san'at, matematika va boshqalar) bilan organik birlashtirib, o'quvchilarda nutqning og'zaki va yozma shakllarini, leksik boylikni, grammatik tuzilmani va kommunikativ ko'nikmalarni yaxlit rivojlantirishga imkon beradi. Maqolada integrativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyaning shakllantirishning metodik jihatlari yoritiladi.

MAQSAD: maqolada integrativ yondashuvning nazariy asoslarini tahlil qilish, boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyaning shakllantirishning metodik mexanizmlarini ishlab chiqish, ushbu yondashuvning ta'lim jarayonidagi samaradorligini baholash va amaliy tavsiyalar berish ko'zda tutilgan. Shuningdek, integrativ darslar orqali o'quvchilarning nutq madaniyati va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishning optimal yo'llarini aniqlash maqsad qilingan.

MATERIALLAR VA METODLAR: imiy izlanish jarayonida pedagogika, psixologiya hamda metodika sohasiga oid an'anaviy va zamonaviy ilmiy-adabiyotlar chuqur tahlil etilgan. Integrativ ta'lim nazariyalari, nutqiy rivojlanish psixologiyasi va boshlang'ich ta'lim me'yorlari asosiy manba sifatida qo'llanilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida nazariy o'rganish, qiyosiy tahlil, sintez, pedagogik kuzatuv hamda eksperimental o'qitish (integrativ dars modellari) tatbiq etilgan. Empirik materiallar sifatida boshlang'ich sinf darslaridagi birlashgan yondashuv nutqiy kompetensiyaning shakllantirishda fanlararo bog'lanishlarni (masalan, ona tili va tasviriy san'at, ona tili va tabiatshunoslik) samarali qo'llash imkonini beradi. Bunday darslarda o'quvchilar matn tuzish, hikoya qilish, tasvirlash va muhokama qilish orqali nutq faoliyatini rivojlantiradilar. Eksperimental natijalar shuni ko'rsatadiki, integrativ yondashuvdan foydalanish o'quvchilarning nutq boyligini 25-35% ga oshirib, kommunikativ faolligini va ijodiy fikrlashni kuchaytiradi. Muhokamada integrativ metodlarning afzalliklari (motivatsiya oshishi, yaxlit bilim shakllanishi) va qiyinchiliklari (o'qituvchi tayyorgarligi talabi) ta'kidlanadi.

XULOSA: integrativ yondashuv asosida nutqiy kompetensiyaning shakllantirish boshlang'ich ta'limning samarali metodik yo'nalishi sifatida o'z samarasini ko'rsatmoqda. Ushbu metodika o'quvchilarda nutq madaniyati, kommunikativ ko'nikmalar va ijodiy

qobiliyatlarni yaxlit rivojlantirib, ularning umumiy shaxsiy kamolotiga xizmat qiladi. Kelgusida integrativ darslarni raqamli vositalar va loyihaviy faoliyat bilan boyitish orqali ushbu metodikani yanada takomillashtirish tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: integrativ yondashuv, nutqiy kompetensiya, boshlang'ich sinf, fanlararo bog'lanishlar, ona tili ta'limi, kommunikativ ko'nikmalar, nutq rivojlanishi, metodik tizim, ijodiy fikrlash, ta'lim samaradorligi.

Iqtibos uchun: Mamatraimova D.Ch. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida integrativ yondashuv asosida nutqiy kompetensiyasini shakllantirish metodikasi. // Inter education & global study. 2025. Vol.3, №12. B.87-95

THE METHODOLOGY FOR FORMING SPEECH COMPETENCE IN PRIMARY SCHOOL PUPILS ON THE BASIS OF AN INTEGRATIVE APPROACH

©Mamatraimova Ch. Dilshoda¹✉

¹Termez State Pedagogical Institute, Termez, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: at the primary education stage, the formation of speech competence constitutes a fundamental factor in pupils' overall development, as well as in their cognitive and communicative abilities. In contemporary pedagogy, the integrative approach is recognized as an effective direction for developing speech activity by ensuring inter-subject connections. This approach organically combines mother tongue lessons with other disciplines (literature, environmental studies, visual arts, mathematics, and others), thereby enabling the holistic development in pupils of oral and written forms of speech, lexical richness, grammatical structure, and communicative skills. The article elucidates the methodological aspects of forming speech competence in primary school pupils based on the integrative approach.

AIM: the article envisages analyzing the theoretical foundations of the integrative approach, developing methodological mechanisms for forming speech competence in primary school pupils, evaluating the effectiveness of this approach in the educational process, and providing practical recommendations. Additionally, it aims to identify optimal pathways for developing pupils' speech culture and communicative abilities through integrative lessons.

MATERIALS AND METHODS: in the course of the scientific investigation, traditional and contemporary scholarly literature in the fields of pedagogy, psychology, and methodology has been subjected to profound analysis. Theories of integrative education, the psychology of speech development, and primary education standards have been employed as primary sources. The research methodology includes theoretical examination, comparative analysis, synthesis, pedagogical observation, and experimental teaching (integrative lesson models). Empirical materials have been drawn from examples of integrated activities in primary school lessons.

DISCUSSION AND RESULTS: the integrative approach provides opportunities for effectively applying inter-subject connections (e.g., mother tongue and visual arts, mother tongue and natural science) in forming speech competence. In such lessons,

pupils develop speech activity through text composition, storytelling, description, and discussion. Experimental results demonstrate that utilizing the integrative approach increases pupils' lexical richness by 25–35%, while enhancing communicative activity and creative thinking. The discussion highlights the advantages of integrative methods (increased motivation, formation of holistic knowledge) and challenges (requirements for teacher preparedness).

CONCLUSION: forming speech competence on the basis of the integrative approach has proven itself as an effective methodological direction in primary education. This methodology holistically develops speech culture, communicative skills, and creative abilities in pupils, thereby contributing to their overall personal maturation. In the future, it is recommended to further refine this methodology by enriching integrative lessons with digital tools and project-based activities.

KEYWORDS: integrative approach, speech competence, primary school, inter-subject connections, mother tongue education, communicative skills, speech development, methodological system, creative thinking, educational effectiveness.

For citation: Mamatraimova Ch.Dilshoda "The methodology for forming speech competence in primary school pupils on the basis of an integrative approach", Inter education & global study, vol.3, (12), pp. 87-95. (In Uzbek).

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

©Д.Ч. Маматраимова¹✉

¹Термезский государственный педагогический институт, Термез, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: на этапе начального образования формирование речевой компетенции представляет собой основной фактор общего развития учащихся, а также их когнитивных и коммуникативных способностей. В современной педагогике интегративный подход признаётся эффективным направлением развития речевой деятельности за счёт обеспечения межпредметных связей. Данный подход органически объединяет уроки родного языка с другими дисциплинами (литература, окружающий мир, изобразительное искусство, математика и др.), что позволяет целостно развивать у учащихся устную и письменную формы речи, лексическое богатство, грамматическую структуру и коммуникативные навыки. В статье освещаются методические аспекты формирования речевой компетенции у учащихся начальных классов на основе интегративного подхода.

ЦЕЛИ: в статье предусмотрено анализ теоретических основ интегративного подхода, разработка методических механизмов формирования речевой компетенции у учащихся начальных классов, оценка эффективности данного подхода в образовательном процессе и предоставление практических рекомендаций. Кроме того, ставится цель выявить оптимальные пути развития культуры речи и коммуникативных способностей учащихся через интегративные уроки.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в процессе научного исследования подвергнуты глубокому анализу традиционная и современная научно-литературная база в областях педагогики, психологии и методики. Теории интегративного образования, психология речевого развития и стандарты начального образования использованы в качестве основных источников. Методология исследования включает теоретическое изучение, сравнительный анализ, синтез, педагогическое наблюдение и экспериментальное обучение (модели интегративных уроков). Эмпирическими материалами послужили примеры интегрированных занятий на уроках в начальных классах.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: интегративный подход предоставляет возможности эффективного применения межпредметных связей (например, родной язык и изобразительное искусство, родной язык и естествознание) в формировании речевой компетенции. На таких уроках учащиеся развивают речевую деятельность через составление текстов, рассказывание, описание и обсуждение. Экспериментальные результаты показывают, что использование интегративного подхода повышает лексическое богатство учащихся на 25–35%, усиливая коммуникативную активность и креативное мышление. В обсуждении подчёркиваются преимущества интегративных методов (рост мотивации, формирование целостных знаний) и трудности (требования к подготовке учителя).

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: формирование речевой компетенции на основе интегративного подхода проявляет себя как эффективное методическое направление в начальном образовании. Данная методика целостно развивает культуру речи, коммуникативные навыки и креативные способности у учащихся, способствуя их общему личностному совершенствованию. В будущем рекомендуется дальнейшее совершенствование этой методики путём обогащения интегративных уроков цифровыми средствами и проектной деятельностью.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: интегративный подход, речевая компетенция, начальные классы, межпредметные связи, обучение родному языку, коммуникативные навыки, развитие речи, методическая система, креативное мышление, эффективность образования.

Для цитирования: Маматраимова Д.Ч. Методика формирования речевой компетенции у учащихся начальных классов на основе интегративного подхода. // Inter education & global study. 2025. Vol.3, №12. С. 87-95

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonunida umumiy o‘rta ta’lim o‘quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lib, boshlang‘ich ta’lim ta’lim oluvchilarda umumiy o‘rta ta’limni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko‘nikmalar asoslarini shakllantirish muhim vazifa sanaladi. Chunonchi, qonunda belgilangandek, tayanch o‘rta ta’lim o‘quv dasturiga muvofiq ta’lim oluvchilarga bilim, malaka va ko‘nikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi (1;36-bet).

Prezidentimiz maktablarda o'quv yuklamasi va darslar sonini qayta ko'rib chiqish, o'quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish zarurligini ta'kidladi. Bu borada Finlyandiya tajribasi misol qilib keltirildi. Ushbu mamlakat umumiy savodxonlik, tabiiy fanlar va matematika bo'yicha dunyoda eng ilg'orlardan biri. Shuningdek mamlakatimizning umumta'lim maktablari DTS va Milliy o'quv dasturi, namunaviy o'quv rejalarida asosan tabiat va jamiyat o'rtasidagi bog'liqliklarni uyg'unlashtirish, atrof muhitga mas'ullik munosabatlarini shakllantirishda fanlar integratsiyasi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi." Xususan, boshlang'ich sinflarda darslarni chuqur o'zlashtirishga, vaqtdan unumli foydalanishga, dars sifati va samaradorligini oshirishga fanlarni integratsiyalash orqali erishish mumkin.

Nutq esa kishi faoliyatining tilvositalari (so'z, so'zbirikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar, o'z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir. O'quvchi nutqining muhim ko'rsatkichlaridan biri uning so'z boyligidir.

Pedagogik adabiyotlarda berilgan ilmiy ma'lumotlarga qaraganda, 2 yoshli bolalar 30 dan 100 gacha, 4 yoshli bolalar 1000 dan 4000 gacha, 7 yoshli bolalar 3000 dan 7000 gacha, 10-11 yoshli bolalar 8000 dan 15000 gacha, 14-15 yoshdagilar 11000 dan 18000 gacha so'zni bilishlari lozim. Ammo, afsuski, ona tili mashg'ulotlarida fikrni og'zaki va yozma shaklda bayon qilish zaruriyati tug'ilganda o'quvchilardagi so'z qashshoqligi darrov sezilib qoladi. Nutqda so'zlarni takroriy qo'llash, berilgan so'zni uning ma'nodoshi, uyadoshi va qarama-qarshi ma'noligi bilan almashtira olmaslik, ma'lum bir sohaga qarashli so'zlar lug'atini tuzishda uchraydigan qiyinchiliklar, shubhasiz, o'quvchilarning so'z boyligi yetarli emasligidan dalolat beradi. Nutq o'stirish nima? Agar o'quvchi va uning tilidan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda tilni har tomonlama faol amaliy o'zlashtirish tushuniladi (2;2-bet).

Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, o'quvchilarning tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo'llash tushuniladi.

Kompetensiya esa u yoki bu soha bo'yicha bilimdonlikdir. Kompetensiya-(lot."compete" - erishyapman, munosibman, loyiqman) – fan bo'yicha egallagan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni echishda foydalanib, amaliyotda qo'llay olishdir.

Kompetensiya - bu kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat belgisidir. Nutqiy kompetensiya esa til ta'limining quydagi to'rt kompetentini rivojlantirishni nazarda tutadi.

1- Tinglab tushunish (eshitilgan va eshittirilgan nutqni, tinglangan matndagi asosiy axbarotni, dolzarb mavzulardagi radio va teledasturlarni tushunish)

2- Gapirish (monologik, dialogik og'zaki nutq turlarida o'z shaxsiy qarashlari va fikrlarini bildirish, mavzu doirasida taqdimot qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish)

3- O'qish: mavzuga oid materiallarni adabiy-badiiy matnlarni, ommabop materiallarni (gazeta, hikoya, shaxsiy va elektron xatlarni) o'qish.

4- Yozish (diktant, bayon, insho yoza olish, ijodiy matnlar tuza olish, rasmiy ish qog'ozlarini yurishishni bilish)

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari u yoki bu fanlarni o'rganib, shu bilan ko'nikmalarni boshqa fanlarni o'rganishni qo'llashga qiynalib ularga mustaqil fikrlashni, olingan bilimlarga o'xshash yoki yangi vaziyatlarga ko'chira bilish ko'nikmalari etishmayapti. Bularning hammasi boshlang'ich sinflardagi turli fanlar bo'yicha mashg'ulotlarning o'zaro kelishmovchiligi sodir bo'lmoqda va bu holda integratsiya bir fan bo'yicha bilimlarni ikkinchisiga ko'chirish va faoliyatning zamonaviy fanlar integratsiyasi yo'nalishlari aks etuvchi yangi didaktikalarni yaratish jarayoniga asos bo'ladi. (3;36-bet) Masalan, ona tili darslarida og'zaki va yozma tarzda har bir mavzu to'qrisida ma'lumotlar beriladi. Birinchi sinf darajasiga mos matnlarda voqea-hodisa, shaxs narsa yoki joy haqidagi ma'lumotlar so'zlovchi tomonidan ochiq ifodalanganda savollarga javob bera oladi. Sinf darajasiga mos badiiy va informatik, integratsiya qilingan matnni tinglash jarayonida voqea-hodisa sodir bo'layotgan makon hamda zamon haqida taxmin qila oladi, taxminlarni asoslab bera oladi. Masalan, o'yin texnologiyalari, ular o'quvchilarni o'qitishda qiziqishni oshirish, muloqotni rivojlantirish va bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Quyidagi mashqda ham integrativ yondashuv asosida tashkillashtirilsa, topshiriq bajarilsa, o'quvchilarning nutqiy rivojlanishiga o'z ta'siri o'tkazishi mumkin.

2-mashqda: Nima uchun ajratib ko'rsatilgan so'zlar bosh harf bilan yozilgan?

Men yozni buvimnikida - To'raqo'rg'on qishlog'ida o'tkazdim. Har kuni Kosonsoy daryosida cho'mildim. Amakim Chortoq qishlog'ida yashaydi. Biz qishki ta'tilni Farg'ona viloyatining Rishton tumanida o'tkazdik. U erdan So'x daryosi va Jonobod kanali oqib o'tadi. Bunda o'qituvchi so'zlarning bosh harflar bilan yozilganligini, nega shunday yozilishini qanday ma'noda anglashilayotganligini tushuntirishi kerak. Natijada o'quvchilar mashqlarni va matndagi so'zlarni ifodali o'qishadi, yoddan ham aytishadi va o'qituvchi tomonidan berilgan savolga javob ham berishadi (4;27-bet).

2-sinf dan o'quvchilarning nutqini o'stirishda integrativ yondashib quyidagi kabi metodik topshiriqlarni qo'llashimiz mumkin.

"O'zaro bog'liqlik". O'quvchilarga rasmlar kartochkalar tarqatiladi. Ular kartochkalar bilan tanishib chiqqach, o'quvchi rasmdagi predmet haqida gapirib, og'zaki hikoya tuzib beradilar.

Masalan: "Bu olma. Olma bog'da o'sadi va mevalarga kiradi. Uni o'quvchilar juda yaxshi ko'rishadi". Keyin ikkinchi bola ham o'zidagi predmet haqida gapiradi matn tuzadi va o'zidagi predmet bilan birinchi o'quvchidagi predmetni o'zaro bog'liqligini aytishi kerak.

Masalan: "Bu quyosh. Quyosh chiqsa havo isiydi. Uni o'quvchilar yaxshi ko'rishadi. Quyosh isitib tursa, olma va boshqa mevalar pishadi". Keyin uchinchi o'quvchi o'zidagi predmet haqida gapiradi va ikkinchi boladagi predmet bilan o'zidagi predmet orasidagi bog'liqlikni topishi kerak. O'yin shu tartibda davom etadi.

"Umumiylikni izlash". O'quvchilar aylana qurib o'tiradilar. Olib boruvchi o'quvchilardan biriga to'pni otayotib, bir-biri bilan bog'lanmagan ikkita so'zni aytadi. Masalan: maktab va o'quvchi, kitob va javon, quyosh va gul.

To'pni tutib olgan o'quvchi so'z juftligi orasidan umumiy belgini aytib, nafaqat bu so'zlarni ona tili darsida balki tabiiy fanda ham borligini, qanday ko'rinishga ega ekanligini aytib ma'lumot berib to'pni qaytaradi.

“Safar”. O'quvchilarga maktabdan yoki uylaridan ma'lum bir joygacha bo'lgan yo'lini tasvirlash topshirig'i beriladi. O'quvchilar bir necha kun davomida “obekt”ni mustaqil kuzatadilar va uni og'zaki tasvirlab beradilar. Sinchkovlik, ziyraklik, kuzatuvchanlik, atrof-muhitga diqqat-e'tibor talab etiladigan bu o'yin vositasida Vatanni sevish, tabiatga muhabbat, chor-atrofga e'tiborli bo'lish hislarini tarbiyalash mumkin. Bundan tashqari, mazkur o'yinlardan foydalanganda o'quvchilarning nutqi rivojlanadi, lug'at boyligi yanada ortadi, mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi.

Boshlang'ich sinfda o'quvchilar ongli, turli va bir me'yorda bo'g'inlab o'qish malakasini egallaydilar. Ayrim nutq tovushlarining talaffuzidagi qiyinchiliklar bartaraf etiladi. O'quvchilar o'qigan matnlarning mazmunini o'qituvchining yordamchi savollari asosida hamda kichik hajmdagi matn mazmunini unga ishlangan rasmdan foydalanib so'zlab berishga o'rganib boradilar.

O'quvchining maktabda yaxshi o'qishida muhim omillardan biri bo'lib hisoblangan-nutqni o'stirish, o'qish va savodga tayyorgarlik jarayoni qiziqarli usullar, voqeaband rasmlar, jonli suhbatlar, mantiqiy o'yinlar orqali tavsiya etilgan.

Mantiqiy o'yinlar - o'quvchining nutqini shakllantirishda jummalarni grammatik jihatdan to'g'ri tuzishlarida, nutq tovushlarini aniq eshitib, to'g'ri talaffuz etishda bosma harflarni o'zlashtirib, so'zlarni bo'g'inlab o'qishga o'rgatadi. Darslikdagi ertak yoki hikoyalarni ifodali tarzda o'qib bo'lgach, birgalikda asar voqealarini muhokama qilib qahramonlar xatti-harakatlariga yaxshi va yomon tomonlarga baho berishga undash kerak. Bolaga ertak (hikoya) ni qayta hikoya qilishni taklif etish ham samarali usullardan biri. Qayta hikoya qilayotganda voqealarni batafsil ravon so'zlashga, savollarga aniq, to'liq javob berishga alohida e'tibor berish kerak. Bolaga noto'g'ri aytgan joylarda, xotirasidan chiqqanida tovushlarni to'g'ri talaffuz etmaganda asta-sekinlik bilan unga ko'maklashib boriladi. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarining o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma kitobidan to'g'ri foydalanish ham o'quvchilar nutqini o'stirishda yaxshi natija beradi. O'quvchilar nutqini o'stirishda surat bo'yicha so'zlab, hikoya tuzish, birgalikda she'r o'qish mashg'ulotlari ham keltirilgan.

Boshlang'ich talim maktablarida bolalarni har tomonlama rivojlantirishga oid tadqiqotlar o'zbekistonlik pedagog, psixolog va faylasuflar: O'quvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlash texnologiyasi X.Yusupova, nutqning shakllanishi va sozni egallashning ilk bosqichi muommasi H.Saidraximova, M.Qurbonov, G.Goziyev ishlarida, G.Abdurahmonov, S.Ziyayev, S.Narziqulova, S.Umarovlar oz ishlarida muloqot tasirchanligida testlardan foydalanishning keng imkoniyatlari atroflicha tadqiq qilingan. Boshlang'ich sinf ona tili darslarini tashkil etishni takomillashtirish masalalari U.Masharipova, savod orgatish masalalari A.Gulomov, K.Qosimova, S.Matjonov, SH.Sariyev, Q.Abdullayevalar tomonidan tadqiq qilingan. Bola nutqini rivojlantirishning ahamiyati, nutqni muloqot usuli sifatida, uning kommunikativ funksiyasini rivojlantirish haqida turli mualliflarning koplav asarlarida (A.A.Badalev, A.A.Buyeva, S.Vigotskiy, A.A.Leontev, M.I.Lisina va boshq.) tomonidan organilgan. Darslikning tuzuvchilari Iroda

Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sadullo Quronov, Shokir Tursunovlar tomonidan oquvchilar nutqini ostirish boyicha topshiriqlar ham ishlab chiqilgan.

Birinchi sinf oquvchilari nutqini ostirishda, shakllantirishda olingan malumotlardan quyidagi hollarda foydalanish mumkin:

- o'ziga ozi real ,obektiv baho berishi;
- oquv materiallarining yosh xususiyatlariga mosligi, amaliy tatbiq qilish vositalari, amaliy materiallarni maktab talim tizimiga keng kolamda joriy qilish imkoniyatini beradi;
- og'zaki va yozma nutq shakllarining yuksalishida matn ustida ishlashning afzalliklari haqida zaruriy xulosalar chiqariladi;
- birinchi sinf oquvchilar uchun oquv va uslubiy qollanmalar yaratishda samarali foydalanish mumkin;

-tajriba-sinov natijalari asosida birinchi sinf o'qituvchilari uchun ona tili va o'qish savodxonligi darslarini o'qitishni samarali tashkil etish bo'yicha darslar ishlanmasini ishlab chiqiladi. Birinchi sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida oquvchilar nutqini ostirish usullari mazmuni asosida oquvchilarning ozlashtirish darajasini aniqlash maqsadida oquv muassasasi Shorchi tumani 20-sonli umumiy orta talim, Jarqorgon tumani 36-sonli umumiy orta talim maktabi hamda Qumqorgon tumani 86-sonli umumiy orta talim maktablari tanlab olindi.

Notiqlik va nutqqa doir tushunchalarni qanchalik bilishi haqida suhbar asosida savollar berildi. Bu oquv muassasasida birinchi sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida oquvchilar nutqini ostirish usullari boyicha boshlang'ich bilimlari yetarli emasligi va ularni bilim darajasi deyarli bir xil ekanligi aniqlandi. Bu bosqichda o'qitish texnologiyasining zamonaviy usullaridan foydalangan holda o'qitishni tashkil etish, yaratilgan metodik ishlanmalarni oquvchilarga samarali yetkazib berish kerakligi maqsad qilib qoyildi. Bu maqsadga erishish yolida 5 ta dars ishlanmalari ishlab chiqildi. Shundan song tajriba sinov ishlarini otkazish maqsadida maktablar tanlab olindi. Ularning biri tajriba guruhi, ikkinchisi nazorat guruhi sifatida qarab chiqildi. Ona tili darslarida faqat standart topshiriqlar bilan chegaralanib qolmay, balki nostandart topshiriqlardan ham unumli foydalanishga koproq zarurat sezilmoqda. Nostandart topshiriqlar oquvchilarning fikrlash faoliyatini kuchaytiradi, uni bajarishga bolgan ishtiyoqini oshiradi. Bu esa faollikni taminlashning muhim omilidir.

Dars jarayonida olib boriladigan o'yinlarning qiziqarli va mavzuga oid bolishi oquvchilarning darsda faol ishtirok etishiga olib keladi. Ona tili darslari mazmunini takomillashtirish va uni oquvchilarning oquv-biluv faoliyatini faollashtiradigan muhim manbaga aylantirish choralaridan yana biri fan ichidagi fan va fanlararo boglanish imkoniyatlarini kengroq ishga solishdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tengdoshlari va kattalar bilan suhbat hamda muhokama jarayonida muloqot odobiga, suhbat yoki muhokama jarayonida boshqalarning fikriga munosabat bildiradi. Bu yoshdagi o'quvchilarga she'riy topishmoqlarni tez aytish kabi nutqlarini rivojlantiradi. Topshiriqlarni zamonaviy metodlardan foydalangan holda integratsional yondashilib olib borilsa, o'quvchilarning nutqi jarangdor va tiniq bo'lib boradi. O'quvchi nutqini rivojlantirish murakkab jarayon bo'lib, unga monelik qilayotgan omillar ham faqat ta'lim mazmuni yoki o'qituvchigagina bog'liq emas. Integrativ yondashilsagina fikrni og'zaki va yozma ravishda to'g'ri, ravon ifodalashga o'rgatish jarayoni oson kechadi. O'quvchi nutqini

rivojlantirishga keng yo'l ochadi. O'quvchilar bir xillikdan zerikadi. Shuning uchun ularni nutqini o'stirishda doimo har xil metod va o'yinlardan foydalanish lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Mamatraimova Dilshoda . FORMATION OF SPEAKING LITERACY IN PRIMARY CLASS STUDENTS. Journal of Educational discoveries and Lifelong Learning. Volume 4, Issue 11, Nov., 2023
2. Norbo'tayev X.B. Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'lim". – T.:Innovatsiya-Ziyo, 2023. 36-bet.
3. Mamatraimova Dilshoda chorshanbiyevna.(2025) METHODS OF DEVELOPING THE SPEECH OF PRIMARY STUDENTS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH.Journal of Innovation in Pedagogy and Educational Advancement .<https://brightmindpublishing.com/index.php/ev/article/view/1645/1673>.
4. Mamatraimova Dilshoda Chorshanbiyevna.(2025) METHODOLOGY FOR THE FORMATION OF SPEECH COMPETENCE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH.World Bulletin of education and Learning (WBEL). <https://worldbulletin.org/index.php/1/article/view/99/97>.
5. Mamatraimova Dilshoda Chorshanbiyevna (2025) BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI NUTQINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA O'STIRISH USULLARI .Qurilish va ta'lim ilmiy jurnali.4-jild. 3-son.(78-81-betlar).
6. Mamatraimova Dilshoda Chorshanbiyevna.(2025) BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING NUTQINI O'STIRISH USULLARI.Uzluksiz ta'lim tizimida, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida kasbiy pedagogic mahorat mexanizmlarini takomillashtirish: muammolar,yechimlar" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya.(210-213-betlar).
7. Mamatraimova Dilshoda Chorshanbiyevna.(2025) INTEGRATIV USULDA O'QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI.INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION International scientific-online conference.(93-96-betlar).

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Mamatraimova Dilshoda Chorshanbiyevna**, o'qituvchi, [**Маматраимова Дилшода Чоршанбиевна**, преподаватель], [**Mamatraimova Ch. Dilshoda**, teacher]; manzil: O'zbekiston, Surxondaryo viloyati, Termiz tumani, Yangiobod MFY At-Termiziy ko'chasi 1 A uy [адрес: Узбекистан, Сурхандарьинская область, Термез, ул. Ат-Термизий, 1], [address: Uzbekistan, Surkhondaryo region, Termiz, street At-Termiziy, 1]